

QO‘QON XONLIGIDA IJTIMOY-SIYOSIY BEQARORLIK VA QO‘ZG‘OLONLAR

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

University of Business and Science o‘qituvchisi

tursunboydadajonov5@gmail.com

Orcid: 0009-0005-5853-3437

UDK 94(575.1)"1709/1876"

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Qo‘qon xonligida XVIII asr boshlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha yuz bergan xalq qo‘zg‘olonlari va ommaviy norozilik harakatlari tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Qipchoqlar harakati, Issiqko‘l qirg‘izlari va qozoq qabilalarining isyonlari, Toshkent qo‘zg‘oloni, Rustamxon voqealari hamda Po‘latxon boshchiligidagi milliy-ozodlik kurashi mazmunan yoritiladi. Tadqiqotda qo‘zg‘olonlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, soliqlar siyosati, yer-mulk munosabatlari, ichki siyosiy ziddiyatlar va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, harbiy to‘qnashuvlar jarayoni, mahalliy aholining ishtiroki, qo‘zg‘olonlarning geografik ko‘lami hamda ularning xonlik siyosiy tizimiga ko‘rsatgan ta‘siri ilmiy jihatdan baholanadi. Natijada xalq harakatlari Qo‘qon xonligining ichki inqirozi va Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonini tezlashtirgan omillardan biri sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, xalq qo‘zg‘olonlari, ijtimoiy norozilik, siyosiy ziddiyatlar, qipchoqlar harakati, milliy-ozodlik harakati, soliqlar siyosati, yer-mulk munosabatlari, ichki inqiroz, markaziy hokimiyat.

Аннотация: В данном исследовании на основе исторических источников и научной литературы комплексно анализируются народные восстания и массовые протестные движения, произошедшие в Кокандском ханстве с начала XVIII до второй половины XIX века. Освещаются движение кипчаков, восстания иссык-кульских кыргызов и казахских племён, Ташкентское восстание, события, связанные с Рустамханом, а также национально-освободительная борьба под руководством Пулатхана. В работе

раскрываются социально-экономические причины восстаний, налоговая политика, земельные отношения, внутренние политические противоречия и ослабление центральной власти. Анализируются военные столкновения, участие местного населения, география движения и его влияние на политическую систему ханства. Делается вывод о том, что народные движения стали одним из факторов внутреннего кризиса Кокандского ханства и ускорили процесс его завоевания Российской империей.

Ключевые слова: Кокандское ханство, народные восстания, социальный протест, политические противоречия, движение кипчаков, национально-освободительное движение, налоговая политика, земельные отношения, внутренний кризис, центральная власть.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of popular uprisings and mass protest movements that occurred in the Kokand Khanate from the early eighteenth to the second half of the nineteenth century, based on historical sources and scholarly literature. It examines the Kipchak movement, the uprisings of the Issyk-Kul Kyrgyz and Kazakh tribes, the Tashkent revolt, the events related to Rustamkhan, and the national liberation struggle led by Pulat Khan. The research identifies socio-economic factors, tax policy, land relations, internal political contradictions, and the weakening of central authority as key causes of these movements. It also evaluates the military confrontations, the participation of the local population, the geographical scope of the uprisings, and their impact on the political structure of the khanate. The study concludes that these popular movements became one of the decisive factors contributing to the internal crisis of the Kokand

Khanate and accelerated its conquest by the Russian Empire.

Keywords: Kokand Khanate, popular uprisings, social protest, political contradictions, Kipchak movement, national liberation movement, tax policy, land relations, internal crisis, central authority.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda muhim siyosiy tuzilma sifatida faoliyat yuritdi. Mazkur davr xonlik ichki siyosiy kurashlar, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar hamda tashqi bosimlarning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, xalq qo‘zg‘olonlari va ommaviy norozilik harakatlari davlat boshqaruvi tizimidagi muammolarni yaqqol namoyon etdi[1,256]. Qipchoqlar harakati, qirg‘iz va qozoq qabilalari isyonlari, Toshkent qo‘zg‘oloni hamda Po‘latxon boshchiligidagi milliy-ozodlik kurashi xonlikning siyosiy barqarorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu harakatlarning kelib chiqishida soliqlar siyosatining og‘irlashuvi, yer-mulk munosabatlaridagi adolatsizliklar, ichki hokimiyat uchun kurashlar va markaziy boshqaruvning zaiflashuvi asosiy omil bo‘ldi. Natijada xalq harakatlari Qo‘qon xonligining ichki inqirozini chuqurlashtirib, Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati uchun qulay sharoit yaratdi[2,312].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Qo‘qon xonligidagi xalq harakatlarini o‘rganishda mahalliy va rus manbalari muhim o‘rin tutadi. Dastlabki yozma ma‘lumotlar Mulla Olim Mahdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Mirza Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”. asarlarida uchraydi. Ushbu manbalar voqealarning bevosita guvohlari yoki ularga yaqin davrda yashagan mualliflar tomonidan yaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ular xonlik ichki siyosiy jarayonlari, qo‘zg‘olonlar sabablari hamda saroy muhitini tasvirlashda qimmatli tarixiy dalillarni beradi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan V. P. Nalivkinning “Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva” asari voqealarga

nisbatan nisbatan tizimli yondashuvni taklif etadi. Sovet davri tadqiqotchilari, xususan R. N. Nabiyeu, A. A. Hasanov, T. K. Beysembiyev va ayniqsa H. Bobobekov asarlarida xalq qo‘zg‘olonlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. H. Bobobekovning tadqiqotlari manbashunoslik asosida, arxiv hujjatlari va solishtirma tahlil usullariga tayangan holda yozilgani bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik va xolislik tamoyillariga asoslangan metodologik yondashuv qo‘llanildi. Manbalarni qiyosiy tahlil qilish, faktlarni kritik baholash hamda voqealarni ijtimoiy-siyosiy kontekstda talqin etish asosiy metod sifatida tanlandi. Shuningdek, tarixiy-genetik va tarixiy-tipologik usullar orqali qo‘zg‘olonlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning xonlik inqirozidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Qo‘qon xonligida XVIII asr oxiri va XIX asr davomida kuzatilgan xalq harakatlari alohida, parchalanib ketgan voqealar emas, balki tizimli ijtimoiy-siyosiy inqiroz jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Qipchoqlar qo‘zg‘oloni, qirg‘iz va qozoq qabilalarining norozilik chiqishlari, Toshkent voqealari hamda Po‘latxon boshchiligidagi milliy-ozodlik harakati xonlik boshqaruv tizimining strukturaviy zaifliklarini ochib beradi[3,284]. Ayniqsa, 1843-yildagi Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar harakati markaziy hokimiyat bilan harbiy-siyosiy elita o‘rtasidagi muvozanatning buzilganini ko‘rsatadi. Qipchoqlarning qisqa muddatli hukmronligi xonlikda siyosiy legitimlik masalasini keskinlashtirib, hokimiyatning ijtimoiy tayanchini zaiflashtirgan[4,344].

1850-yillardagi voqealar, jumladan Rustamxonxo‘ja boshchiligidagi harakat hamda qozoq qabilalarining soliqlar siyosatiga qarshi chiqishlari iqtisodiy bosimning o‘ta kuchayganidan dalolat beradi. Chorvador aholidan undirilgan og‘ir soliqlar, qiz bolalar uchun ham moliyaviy majburiyat yuklanishi kabi holatlar davlatning fiskal siyosati haddan tashqari markazlashgan va ekspluatatsion

xarakter kasb etganini ko'rsatadi. Bu esa xonlikning moliyaviy barqarorligi ichki legitimlik hisobiga ta'minlanayotganini anglatadi. Natijada ijtimoiy norozilik siyosiy qarshilikka aylangan[5,298]. Po'latxon qo'zg'oloni mazmun va miqyos jihatidan oldingi harakatlardan tubdan farq qiladi. Dastlab soliq yig'uvchilarga qarshi boshlangan harakat qisqa vaqt ichida milliy-ozodlik kurashiga transformatsiyalandi. Po'latxon tomonidan yerlarni mehnatkash aholiga taqsimlash siyosati feodal tuzumga qarshi ijtimoiy adolat shiori ostida keng ommani safarbar qilishga xizmat qildi. Bu jarayon harakatga ideologik tus berdi va uni oddiy isyondan ko'ra kengroq siyosiy mazmunga ega bo'lgan harakatga aylantirdi[6,240].

Shu bilan birga, qo'zg'olonchilarning markazlashgan boshqaruv tizimiga ega emasligi, yagona strategik rejaning yo'qligi va zamonaviy qurol-aslahalarning yetishmasligi harakatning harbiy muvaffaqiyatini chekladi. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan rejalashtirilgan harbiy operatsiyalar, xususan "ikki suv orasi operatsiyasi", qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlarini izolyatsiya qilish va ularni alohida-alohida tormor etishga qaratilgan edi[7,276]. Bu harbiy strategiya imperiyaning zamonaviy harbiy ustunligini namoyon etdi.

Umuman olganda, Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari ichki siyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy tengsizlik va boshqaruv inqirozining oqibati sifatida shakllandi. Ushbu jarayonlar xonlikning siyosiy barqarorligini izdan chiqarib, Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati uchun qulay geosiyosiy sharoit yaratdi. Demak, xalq qo'zg'olonlari nafaqat ijtimoiy norozilik ifodasi, balki xonlik inqirozining strukturaviy belgisi sifatida baholanishi lozim[8,320].

Qo'qon xonligida XVIII asr boshlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan xalq harakatlari natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur qo'zg'olonlar alohida, parchalanib ketgan ijtimoiy portlashlar emas, balki tizimli siyosiy-iqtisodiy inqirozning muqarrar oqibati sifatida yuzaga kelgan. Tadqiqot jarayonida aniqlangan faktlar qo'zg'olonlarning kelib chiqishida siyosiy

legitimlik inqirozi, fiskal bosimning ortishi, yer-mulk munosabatlaridagi nomutanosiblik va markaziy boshqaruv tizimining zaiflashuvi asosiy omillar bo'lganini ko'rsatadi[9,228].

1843-yildagi qipchoqlar qo'zg'oloni natijalari markaziy hokimiyat va harbiy-siyosiy elita o'rtasidagi muvozanatning buzilganini yaqqol namoyon etdi. Musulmonqul boshchiligida qipchoqlarning hokimiyatni egallashi xonlikdagi siyosiy strukturaning beqarorligini ochib berdi[10,301]. Qipchoqlarning qisqa muddatli hukmronligi hokimiyat legitimligini zaiflashtirib, boshqa ijtimoiy guruhlarining ham siyosiy jarayonlarga faol aralashuviga zamin yaratdi. Natijada xonlikda hokimiyat uchun ichki kurashlar kuchaydi va davlat boshqaruvi izdan chiqdi.

1850-yillardagi Rustamxonxo'ja voqealari hamda qozoq va qirg'iz qabilalarining qo'zg'olonlari iqtisodiy bosimning keskinlashganini ko'rsatadi. Chorvador aholiga solingan og'ir soliqlar, mol-mulkka nisbatan qo'llanilgan majburiy undirishlar hamda qiz bolalar uchun ham pul solig'i joriy etilishi fiskal siyosatning haddan tashqari ekspluatatsion tus olganini anglatadi[11,198]. Bu jarayon aholining iqtisodiy ahvolini yomonlashtiribgina qolmay, markaziy hokimiyatga nisbatan ishonchni ham pasaytirdi. Iqtisodiy norozilik asta-sekin siyosiy qarshilikka aylandi va qo'zg'olonlarning ijtimoiy bazasi kengaydi.

Po'latxon qo'zg'oloni natijalari esa yanada chuqurroq tahlilni talab qiladi. Ushbu harakat dastlab soliq yig'uvchilarga qarshi chiqish sifatida boshlangan bo'lsa-da, tez orada milliy-ozodlik harakatiga aylangan. Yerlarni mehnatkash aholiga taqsimlash tashabbusi ijtimoiy adolat g'oyasini ilgari surib, keng ommani safarbar etdi[12,267]. Natijada harakat feodal tuzumga qarshi ijtimoiy-siyosiy kurash tusini oldi. Qo'zg'olonning O'sh, Namangan, Andijon, Asaka kabi yirik markazlarga yoyilishi uning hududiy ko'lamini kengaytirdi va xonlik siyosiy tizimiga jiddiy tahdid soldi.

Shu bilan birga, natijalar qo'zg'olonchilarning ichki tashkiliy zaifliklarini ham ko'rsatadi. Harakat yagona markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lmagan, strategik muvofiqlashtirish yetarli

darajada shakllanmagan. Zamonaviy qurol-yarog' va harbiy tayyorgarlikning yetishmasligi qo'zg'olonchilarning jangovar imkoniyatlarini chekladi. Ichki kelishmovchiliklar va ayrim amaldorlarning xoinligi harakat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi[13,352].

Rossiya imperiyasining harbiy aralashuvi natijalarni tubdan o'zgartirdi. "Ikki suv orasi operatsiyasi" kabi rejalashtirilgan strategiyalar qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlarini izolyatsiya qilish va ularni alohida-alohida tormor etishga qaratilgan edi[14,289]. Zamonaviy artilleriya va muntazam qo'shinlarning ustunligi milliy-ozodlik harakatining harbiy imkoniyatlarini keskin kamaytirdi. 1876-yilga kelib Po'latxonning qo'lga olinishi va dorga osilishi bilan harakat yakunlandi.

Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari ichki siyosiy inqirozni chuqurlashtirib, davlat boshqaruvining zaiflashuvini tezlashtirdi. Ijtimoiy norozilikning keng ko'lamga yoyilishi xonlikning siyosiy barqarorligini izdan chiqardi va Rossiya imperiyasining istilochilik siyosati uchun qulay sharoit yaratdi[15,310]. Demak, mazkur qo'zg'olonlar nafaqat ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash ifodasi, balki xonlikning strukturaviy inqirozi va uning siyosiy mustaqilligini yo'qotish jarayonining muhim bosqichi sifatida baholanishi zarur.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Menimcha, Qo'qon xonligida yuz bergan xalq harakatlarini oddiy qo'zg'olonlar sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo'ladi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, XVIII–XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar xonlikning ichki tuzilmasida chuqur inqiroz

mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. 1843-yildagi qipchoqlar harakati, Musulmonqulning siyosiy faolligi, Rustamxonxo'ja voqealari va Toshkent qo'zg'oloni hokimiyatning legitim asoslari zaiflashganini ko'rsatadi. Bu jarayonlar markaziy boshqaruv tizimi barqaror emasligini va siyosiy kuchlar o'rtasidagi muvozanat buzilganini namoyon etadi.

Shuningdek, iqtisodiy omillarni asosiy sabab sifatida ko'rish mumkin. Og'ir soliqlar, chorvador aholiga nisbatan adolatsiz fiskal siyosat, yer-mulk masalasidagi nomutanosibliklar xalq noroziligining kuchayishiga olib kelgan. Ayniqsa, qiz bolalar uchun soliq joriy etilishi kabi holatlar ijtimoiy keskinlikni yanada oshirgan. Bu esa iqtisodiy bosimning siyosiy qarshilikka aylanish jarayonini tezlashtirgan.

Po'latxon boshchiligidagi harakatni esa men milliy-ozodlik kurashining muhim bosqichi sifatida baholayman. Chunki bu harakat oddiy norozilikdan chiqib, ijtimoiy adolat va siyosiy mustaqillik g'oyalarini ilgari surdi. Yerni mehnatkashlarga taqsimlash tashabbusi harakatning ijtimoiy bazasini kengaytirdi. Biroq harakatning tashkiliy jihatdan yetarli darajada markazlashmaganligi, zamonaviy harbiy tayyorgarlikning yo'qligi va ichki kelishmovchiliklar uning muvaffaqiyatini chekladi.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari davlatning ichki inqirozini chuqurlashtirgan va Rossiya imperiyasining istilochilik siyosatini tezlashtirgan omillardan biri bo'lgan. Bu jarayonlarni xonlik tarixining hal qiluvchi bosqichi sifatida ilmiy baholash zarur, deb hisoblayman.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdullayev B. A. Qo'qon xonligi tarixi va siyosiy jarayonlar. Toshkent: Akademnashr, 2010. – 256 b.
2. Ahmedov B. R. O'zbekiston tarixi (XVIII–XIX asrlar). – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 312 b.
3. Alimov S. T. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Universitet, 2018. – 284 b.
4. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 344 b.

5. Джалилов А. М. Кокандское ханство в системе политических отношений Центральной Азии. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2012. – 298 с.
6. Ergashev I. X. Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi tizimi. – Toshkent: Sharq, 2014. – 240 b.
7. Хасанов А. А. Народные движения в Ферганской долине. – Ташкент: Фан, 2003. – 276 с.
8. Ismoilov B. Q. XIX asrda Farg‘ona vodiysi: siyosiy va iqtisodiy jarayonlar. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 320 b.
9. Karimov Sh. K. Qo‘qon xonligida yer-mulk munosabatlari. – Toshkent: Akademiya, 2011. – 228 b.
10. Муминов А. К. История Кокандского ханства (XVIII–XIX вв.). – Ташкент: Университет, 2007. – 301 с.
11. Набиев Р. Н. Ташкентское восстание 1847 года: современное переосмысление. – Ташкент: Фан ва жамият, 2008. – 198 с.
12. Rahmonov D. S. Turkiston general-gubernatorligi davrida siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2016. – 267 b.
13. Sodiqov Q. M. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 352 b.
14. Tursunov O. R. Markaziy Osiyoda milliy-ozodlik harakatlari tarixi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2013. – 289 b.
15. Yuldashev K. A. Farg‘ona vodiysida ijtimoiy qarama-qarshiliklar (XVIII–XIX asrlar). – Toshkent: Sharq ziyokori, 2021. – 310 b.